

FANDA FILOLOGIYA YO‘NALISHINING YUZAGA KELISHI TARIXI

Olimboyeva Maftunaxon Muhammadsobir qizi,

Namangan davlat universiteti

filologiya fakulteti amaliy filologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Yuldashev Otabek Toshpo‘lat o‘g‘li,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fanda filologiyaning vujudga kelishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, kelib chiqish tarixi va nazariyasi, filologiya faniga bo‘lgan ehtiyoj va sabablarga oid mulohazalar aks etgan.

Kalit so‘zlar: *filologiya, falsafa, filologiyaning aniqligi, adabiyot nazariyasi.*

Filologiya yozuv madaniyati nisbatan yuksalgan davrda paydo bo‘lgan. Yaqin Sharqdagi qadimgi yuksak taraqqiy etgan madaniyatlar filologiyadan deyarli bexabar bo‘lgan, o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada ham unga yetarlicha e‘tibor berilmagan; ayni paytda filologiya falsafaning vatani, qadimgi Hindiston va Yunonistonda so‘z va nutq ustida fikrlash, uni taxlil qilish tarzida, falsafa bilan uyg‘unlikda paydo bo‘lgan. Falsafadagi mavhumlikka intilish bilan filologiyaning aniqligi, konkretligi o‘rtasida keyinchalik ro‘y bergan ixtiloflarga qaramay, falsafa va filologiyaning dastlabki yaxlitligi, bir butunligi tasodifiy bo‘lmagan: filologiyaning yuksalish, o‘ta rivojlanish davrlari ko‘pincha gneseologik tafakkurning buyuk davrlaridan (masalan, ellinistik dunyoda – Aristoteldan, 17-asrda Yevropada – R. Dekartdan, 19-asrda Germaniyada – I. Kantdan) so‘ng ro‘y bergan. Hind filologiyasi Panini (miloddan avvalgi 5-4asrlar), Patanjali (miloddan avvalgi 2-asr) kabi grammatistlarni, keyinchalik uslub nazariyotchilarini tarbiyalab yetishtiradi; Qadimgi Xitoy madaniyati o‘z filologik an‘analariga ega bo‘lgan (Lyu

Se asarlari, milodiy 5-6-asrlar). Lekin Qadimgi Hindiston va Xitoyning filologik ta'limoti, bu soxadagi yutuqlari yangi va eng yangi davrlargacha yevropaliklarga ma'lum emas edi. Yevropa filologiyasi an'analari butunlay yunon manbalariga, antik dunyo filologiyasiga tayanib ish ko'rgan. Sofistlar davrida (miloddan avvalgi 5-asrning 2-yarmi – 4-asrning 1-yarmi) adabiyot sohasi nazariy poetika va filologiyaning obyekt bo'lish uchun noadabiy muhitdan yetarli darajada ajralib chiqadi. Sofistlardan Protogor, Gorgiy, Prodik va boshqa filologik metodlarni ishlab chiqishda katta xizmat qilganlar; yunon adabiyot nazariyasi Aristotelning „Poetika“ asari bilan yuqori bosqichga ko'tariladi. Ellinistik davrda (miloddan avvalgi 3-1-asrlar) filologiya falsafa fanidan ajralib chiqadi. Frakiyalik Dionisiy (taxminan miloddan avvalgi 150-90-yillar) so'z turkumlarining hozirgacha ham qo'llanib kelayotgan nazariyasini uzil-kesil ishlab chiqdi. Ilk xristianlik davri olimlaridan Origen, Iyeronim (Injilni birinchi marta lotinchaga tarjima qilgan shaxs) Injilning asl nusxasi va yunoncha tarjimasi ustida ulkan tekstologik ishlarni amalga oshirdilar. Yunon filologiyasi an'analari o'zining antik holatini (mumtoz matnlarni o'rganish va sharxlash) batamom saqlagan holda o'rta asrlarda Vizantiyada davom ettiriladi; Rim imperiyasi qulagandan so'ng (1453) Uyg'onish davrida Italiyadan qochib kelgan olimlar tufayli Vizantiya filologiyasini meros qilib oladi. Filologiyaning keyingi taraqqiyot bosqichi Uyg'onish davridagi Dante, Bokkachcho, Petrarka, Lorenso Vall risolalari bilan bog'liq. Ushbu risolalarda Aristotel asarlarining haqiqiy mazmuni aniqlangan, qadimgi yunon va rimlik yozuvchilarning yozma matnlari tanqidiy nuqtai nazardan o'rganilgan va sharxlangan. O'rta asrlarda filologiya Yevropada biroz sust rivojlangan davrda, 8–14-asrlar davomida arab filologiyasi keng ko'lamda rivojlana boshlaydi. Arab filologiyasida tilshunoslik, qisman adabiyotshunoslik sohalari rivojlangan. Bu davrda Kufa va Basra grammatik maktab (oqim)lari yuzaga kelgan. Basra grammatik oqimi vakillari: Xalil ibn Ahmad (8-asr) va uning shogirdi Sibavayhiy o'z asarlarida klassik arab tili me'yorlarini ishlab chiqib, arab tilining birinchi

izohli lugatini tuzganlar, Sibavayhiy arab tilida soʻz turkumlarini 3 asosiy guruhga (ism, feʼl, harf) ajratgan va soʻz turkumlarining sintaktik munosabatlarini belgilagan. Kufa grammatik oqimi vakillari esa oʻz asarlarini arab tili sintaksisiga, arab tilining dialektal grammatik xususiyatlariga bagʻishlaganlar. 9–10-asrlarda har ikki grammatik oqim mustaqil tilshunoslik maktabi darajasiga koʻtarilgan. Basra va Kufa grammatik oqimlari asosida Bogʻdod grammatik maktabi yuzaga keladi, Bogʻdod grammatik nazariyasi yaratiladi. Bogʻdod grammatik oqimining vakili Ibn Jinniy (10-asr) oʻz asarlarida etimologiya masalalariga eʼtibor bergan. Arab xalifaligi hukmronligi Suriya, Misr, Eron, Ispaniya, Oʻrta Osiyoga qadar tarqalishi munosabati bilan bu hududlarda ham Kufa, Basra, Bagʻdod grammatik oqimlari taʼsirida filolog tilshunoslar yetishib chiqadi. Arab filologiyasi anʼanasining tashkil topishi va taraqqiy etishida arablar bilan bir qatorda boshqa xalqlarning arab tilida ijod etgan vakillari ham ishtirok etgan. Ingliz sharqshunosi Y. Braunning koʻrsatishicha, arab fani va madaniyatining eng moʻtabar vakillari deb sanalgan 45 kishidan 30 tasi arab boʻlmagan xalqlarning vakillari boʻlgan. Turkiy filologiya fanining vujudga kelishi ham ayni mana shu olimlarning ilmiy faoliyati bilan bogʻlanadi. Turkiy xalqlarda filologiya qadimda maxsus fan sifatida qaralmagan boʻlsada, unga oid juda koʻplab asarlar – lugʻatlar, grammatikalar, adabiyotshunoslikka doir risolalar, tazkiralar, turkiy xalqlar tarixi va etnografiyasiga doir kitoblar yozilgan. Mahmud Koshgʻariy (11-asr) turkiy xalqlar madaniyati va fani tarixida alohida oʻrin tutadi. U turkiy filologiya fanini yaratgan olimlardan biri va birinchisidir. Uning „Devonu lugʻotit turk“ asarida bu fanning deyarli barcha sohalari yoritilgan: turkiy tillar leksikasi, fonetikasi va morfologiyasi, turkiy tillar tasnifi, turkiy xalqlarning ogʻzaki ijodi va boshqalar. Asarda, shuningdek, turkiy xalqlar etnografiyasi, toponimikasi, geografik joylashuviga oid qimmatli maʼlumotlar ham bor. M. Qoshgʻariy tillarni qiyosiy oʻrganishga ham asos solgan. Oʻz davri olimlari tomonidan „Jorulloh“ („Allohning qoʻshnisi“) laqabini olgan Mahmud Zamaxshariy (11-12-asrlar) Sharq fani va

madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. U falsafa, tarix, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, tilshunoslik kabi fanlarga oid 50 dan ortiq asar yaratdi. Uning „Muqaddimat ul adab“ asari faqat arab tili va tilshunosligi tarixini o‘rganish jihatidagina emas, balki turkiy xalqlar tillari tarixini o‘rganish jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Asarning lug‘at qismida arabcha so‘zlarning forscha, mo‘g‘ulcha tarjimalari bilan bir qatorda turkiycha tarjimalari ham berilgan. Bulardan tashqari, 13-19-asrlarda nomi mashhur yoki noma’lum mualliflar tomonidan yaratilgan 10 dan ortiq bir tilli yoki ikki tilli izohli lug‘atlar turkiy tillarda filologiya fanining rivojiga muayyan hissa bo‘lib qo‘shildi. Shuningdek, Alisher Navoiyning „Muhokamat ulla‘atayn“, „Mezon ulavzon“, „Majolis unnafois“, „Tarixi muluki Ajam“ asarlari, Boburning „Muxtasar“ („Risolai aruz“) va „Boburnoma“si, Abulg‘oziy Bahodirxonning „Shajarai turk“ va „Shajarai tarokima“ kitoblari, Munis, Ogahiy, Bayoniy kabi mualliflarning tarixga oid asarlari, Shayx Ahmad Taroziyning adabiyotshunoslikka oid „Funun ulbalog‘a“ kitobi va boshqa ilmiy asarlar ham keng ma’noda filologiya fanini boyitgan. 18-asrda Germaniyada filolog I.I. Vinkelmannning „neogumanizm“ (yangi gumanizm) nazariyasi paydo bo‘lishi sababli filologiyaning yangi davri boshlanadi. Antik dunyoning yaxlit, bir butun obrazi haqidagi masala Uyg‘onish davridagidek, hatto yanada ko‘proq ilmiy talabchanlik bilan o‘rtaga tashlanadi. Nemis filologi A. Volf „filologiya“ terminini qadimiyat, antik dunyo haqidagi fanning nomi sifatida amalga kiritadi. Bu davrda filologiya juda keng ma’noda tushunilib, nafaqat muayyan xalq tili va adabiyotini, balki tarixi, falsafasi, san’ati va hatto moddiy madaniyatini o‘rganishni ham o‘z ichiga olgan. Filologiyaning madaniyat yodgorliklarini o‘rganuvchi, yunon va rimlik mualliflar asarlarini sharhlovchi bo‘limi keyinchalik „klassik filologiya“ deb atalgan. 19-asrda filologiyaning boshqa fanlardan ajralish jarayoni kuchaygan edi. Nemis filologlari G. Uzener, E. Rode, U. fon Vilamovits Myollendorf va boshqalarning faoliyati natijasida "Qadimgi dunyo tarixi" mustaqil fan tarmog‘i sifatida filologiyadan ajralib chiqadi;

ayni shu davrda romantizm va boshqa g'oyaviy oqimlarning ta'siri ostida „klassik filologiya“ bilan bir katorida „yangi filologiya“ ham vujudga keldi: germanshunoslik (aka-uka Grimmlar), slavyanshunoslik (A. Vostokov, V. Ganka), sharqshunoslik kabilar. Shu bilan birga aka-uka Grimmlar, filologiya Dits, I. Dobrovskiy, A. Vostokov va boshqa filologlar tillarni o'rganishning qiyosiy-tarixiy metodini ishlab chiqdilar. 18-19-asrlarda filologiyaning bir tarmog'i sifatida turkiyshunoslik fani paydo bo'ldi. Filologiyaning yuqoridagidek maxsus bo'limlari yuzaga kelgan va qiyosiy-tarixiy metod qo'llana boshlagan davrda filologiya tushunchasi torayib, tilshunoslikka tenglashib qolgan. 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida filologiya tushunchasi xiyla oydinlashadi va u tillar va adabiyotlarni o'rganishni qamrab oladi; matnshunoslik, manbashunoslik, paleografiya kabi fanlar filologiyaning yordamchi sohalari sifatida paydo bo'ladi, ayniqsa, matnshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi qadimgi qo'lyozmalarni, mumtoz shoirlarning (masalan, Yusuf Xos Hojib, Atoiy, Navoiy, Bobur; Pushkin, Lermontov va boshqalar) asarlarini nashr etishda muhim rol o'ynadi.

Filologiyani tashkil etuvchi tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari, o'z navbatida, maxsus sohalarga tarmoqlanadi: umumiy tilshunoslik, til tarixi, hozirgi tillarni o'rganish; adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid va boshqa filologiya doirasiga folklorshunoslik ham taalluqlidir, chunki folklor ham so'z san'ati hisoblanadi. Hozirgi filologiya til va adabiyotni o'rganishning yangi muammolarini o'rta tashlab, yangi metodlarni ishlab chiqmoqda; ijtimoiy hayotning barcha davrlariga xos yozma manbalar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanmoqda; filologik tadqiqotlar mavjud manbalarga chuqur ilmiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashgan holda olib borilmoqda. Bir paytlar yagona, yaxlit fan hisoblangan filologiya bag'ridan ajralib chiqib, mustaqil fanlarga aylangan tarix, falsafa, san'atshunoslik, madaniyat tarixi kabi soxalarning vazifalari bilan o'z vazifalarini chegaralab olish, shu bilan birga, ular bilan ijodiy hamkorlik qilish hozirgi filologiyaning eng muhim o'ziga xos xususiyatidir. O'zbek filologiyasining

asoslari M. Koshg'ariy, M. Zamaxshariy davriga va asarlariga borib taqalsa ham, yillar mobaynida o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lsa ham, hozirgi ma'nodagi o'zbek filologiyasi 20-asr boshlaridan shakllana boshladi: o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi, manbashunosligi va matnshunosligi filologiya fanining tarmoqlari sifatida taraqqiy etdi. Hozirgi o'zbek filologiyasi jahon filologiya fanining tarkibiy qismi sifatida har tomonlama rivojlanmoqda. O'zbek filologiyasi taraqqiyotiga M. Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Avloniy, Elbek, G'ozim Olim Yunusov, A. Zohiriy, Otajon Hoshim, Hodi Zaripov, S. Ibrohimov, P. Shamsiyev, Sh. Xurshid, Olim Sharafiddinov, S. Mutallibov, Izzat Sulton, O. Usmonov, S. Usmonov, U. Tursunov, Kamol, V. Abdullayev, V. Zohidov, G'. Karimov, Abdullayev, A. G'ulomov, H. Sulaymonovlar, rus olimlaridan Y. Polivanov, K. Yudaxin, A. Borovkov, V. Reshetov, A. Kononov, A. Shcherbak va boshqalarning munosib xissalari bor. Shuningdek, Sh. Shoabdurahmonov, G'. Abdurahmonov, A. Hayitmetov, A. Qayumov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, M. Asqarova, H. Rahmatullayev, A. Hojiyev, A. Abdug'afurov, B. Valixo'jayev, N. Karimov, T. Mirzayev, B. Nazarov, E. Fozilov, E. Begmatov, H. Ne'matov, A. Nurmonov, N. Maxmudov va boshqalar hozirgi kundagi o'zbek filologiyasini rivojlantirishda o'z ilmiy izlanishlari bilan katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, filologiya fan sifatida vujudga kelishi o'z davrining ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda insonlar dunyoqarashi, fikrlashi va jamiyatga bo'lgan munosabatlarning fan nuqtai nazaridan olganda ikkilamchi omil sifatida vujudga kelishida namoyon boladi. Bugungi kunda fan insonlar ortasidagi munosabatlarda kommunikativ aloqalarni yo'lga qo'yishdagi aniq tartib-qoialar va normalarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy xadisa desak xato bolmaydi. Tarixiy jarayonlar va davrlar bugungi kunga qadar ushbu fanning shakllanishi va taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallaganini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jeyms Tyorner, Filologiya: Zamonaviy gumanitar fanlarning unutilgan manbalari, Princeton University Press, 2014.
2. Genri Vild, "Angliyadagi ingliz filologiyasi: Oksford universitetidagi imtihon maktablarida nutq soʻzlagan birinchi dars", 21 fevral 1921.
3. Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: Pearson-Longman.
4. www.ziyonet.uz.